



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Madatov Ilhom  
Yusup o'g'li

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, pedagogika  
fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, Samarqand, Uzbekistan  
ilhommadatov09@umail.uz +99890 469 38 30*

## ARALASH TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETILGAN DARSLARDA QO'LLANILUVCHI ZAMONAVIY METODIKALAR

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aralash ta'limg usullarining rivojlanishi, aralash ta'limg usullarining turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilgan. Bugungi kunda oliv ta'limg tizimida keng qo'llanilayotgan elektron ta'limg texnologiyalari va ulardan zamonaviy pedagoglar tomonidan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar muhokama qilindi. Aralashtirilgan ta'limg texnologiyasi, uning rivojlangan mamlakatlar ta'limg tizimidagi o'rni va mamlakatimizning oliv ta'limg sohasidagi rivojlanishiga oid ko'plab amaliy va nazariy tadqiqotlar ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Aralashtirilgan ta'limg, teskari sinf, onlayn, oflays, mustaqil ta'limg, elektron ta'limg, onlayn muloqot, virtual sinf, faol talaba, texnologiya, kompyuter.

**Аннотация:** В данной статье представлены развитие методов смешанного образования, виды методов смешанного обучения, их преимущества и недостатки. Обсуждались технологии электронного обучения, которые сегодня широко используются в системе высшего образования, и рекомендации по их эффективному использованию современными педагогами. Рассмотрены значительные практические и теоретические исследования по технологии смешанного обучения, ее роли в системе образования развитых стран и развитию нашей страны в сфере высшего образования.



**Ключевые слова:** смешанное обучение, перевернутый класс, онлайн, оффлайн, самостоятельное обучение, электронное образование, онлайн-коммуникация, виртуальный класс, активный ученик, технологии, компьютер.

**Abstract:** This article presents the development of mixed education methods, types of mixed education methods, and their advantages and disadvantages. E-learning technologies, which are widely used in the higher education system today, and recommendations for their effective use by modern pedagogues were discussed. Considerable practical and theoretical studies on blended learning technology, its role in the educational system of developed countries and the development of our country in the field of higher education have been reviewed.

**Keywords:** Blended learning, flipped classroom, online, offline, independent education, electronic education, online communication, virtual class, active student, technology, computer.

**Kirish.** Dunyo miqyosida talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, mustaqil ta’lim olishning motivasion komponentlarga ega yondashuvlarini qaror toptirish, shuningdek, masofaviy ta’limni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, talabalar mustaqil ishlarini pedagogik ta’minalash, mustaqil ta’limga tizimli yondashuv va faoliytni oshirish usullari joriy qilish, talabalarning ichki imkoniyatlari va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi ta’lim muhitini shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan birgalikda, pedagogika fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalar mustaqil ta’limini samarali tashkil etishda ilg‘or tajribalar, xususan Blended learning texnologiyasidan foydalanishning dasturiy vositalarini ishlab chiqish muammolari dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimi orqali pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish, talabalarning bilim olishga bo‘lgan individual qiziqishini ta’minlaydigan ta’lim texnologiyalarini joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “ta’limni globallashtirish va uni modernizasiyalash sharoitlarida ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish ”1, ta’lim tizimi mazmunini sifatli yangilash va zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va innovation loyihalarini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan, bu esa o‘z navbatida, talabalarning mustaqil ta’limini zamonaviy, innovation, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanib, samarali tashkil etish muammosini hal

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>



etadi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlarini samarali takshil etish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizasiyalash hamda uning xalqaro ta'lim makoniga integrasiya qilish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Keyingi paytlarda jahonda ta'limning hammabop bo'lishi zaruratga aylangani, uning sifatini oshirish haqida ko'p gapirilmoqda. Bugunda ta'lim tizimi davr talablariga maksimal tarzda javob berishi, ularning samarali bo'lishini ta'minlashi kerak.

XXI asrga kelib o'qitish tizimi ta'limga bo'lgan an'anaviy qarashlarni zamon talabidan kelib chiqqan holda, yangi nazar bilan ko'rib chiqishni va yangicha yondashuv ko'nikmalarini egallash masalalarini talab etmoqda. Bu esa, o'z o'mnida, innovasiyalarni faol tatbiq qilish, ilm-fan va ishlab chiqarishni ta'lim jarayoniga integrasiya qilishni taqozo etmoqda. Ta'lim – bu kelajagimiz, demak, ta'lim tizimiga yondashuvni qaytadan ko'rib chiqib, an'anaviy o'qitish modeliga yangi o'qitish standartlarini kiritish zarur. Davr talablaridan kelib chiqqan holda, texnologiyalar o'qitish jarayonining bosh katalizatoriga aylanishi kerak. Ta'lim tizimini to'liq isloh qilish murakkab jarayon bo'lib, tashqi olam bilan uzlusiz tarzda o'zaro munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Shunday qilib, mavjud to'siqlarni bartaraf qilish hamda o'qitish jarayonini maksimal samarali rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni barpo etish uchun ta'lim jarayonining bosh bo'g'inlarini aniqlab olish, har birining kuchli va zaif tomonlarini belgilab olish zarur.

Hozirda turli xalqaro tashkilotlarning ta'lim sohasidagi tadqiqot loyihibarining aksariyati bilimlar iqtisodini shakllantirish uchun zarur bo'lgan, texnologiyalarga asoslanadigan XXI asrning chuqur bilimlariga, omilkorligiga bag'ishlangan. Bu tadqiqotlar ta'lim standartlarining mezon va etalonlarini; axborot-kommunikasiya texnologiyalarining (keyinchalik AKT) ta'lim tizimiga ta'sirini xalqaro talablar darajasi kontekstida aniqlashga qaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** "Blended learning", ya'ni aralash ta'lim tushunchasiga Clayton Christensen Institute tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: aralash ta'lim (Blended learning) - zamonaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, o'qituvchi ishtirokidagi ta'lim olishni (Brick and Mortar Education) onlayn ta'lim (eLearning) olish bilan birlashtiradi va ta'lim oluvchi tomonidan o'quv jarayonining tezligi, joyi, vaqt mustaqil nazorat qilinishini hamda o'qituvchi bilan birga va onlayn o'qish tajribasi integrasiyasini faraz qiladi [29, 60].



Aralash ta’lim an’anaviy va masofaviy ta’lim texnologiyalarini birlashtiradi. Ushbu ta’lim texnologiyasi an’anaviy (Brick and Mortar Education) ta’limdan voz kechishni talab qilmaydi, chunki to‘liq ta’lim (qatnab o‘qish) muhim bo‘lgan nutq va ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalarni beradi. Ingliz tilida Brick and Mortar (g‘isht va eritma) deb atalishi an’anaviy", "uzoq vaqt ichida qo‘llaniladigan" ma’nosini bildiradi. Brick and Mortar Education to‘liq ta’limning an’anaviy modelini bildiradi.

Blended learning kabi elektronlashgan ta’lim nazariyalari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borgan olimlar:

Respublikamiz olimlaridan M.Aripov, A.Abduqodirov, R.Boqiyev, S.G‘ulomov, A.Abdullayev, M.Lutfillayev, U.Yuldashev, L.Shibarshova, S.Raxmankulova, R.Xamdamov, B.Mazgarov, N.Tayloqov va boshqalar o‘z ishlarida masofadan o‘qitish texnologiyasi istiqboli hamda rivojlanish bosqichlari, ochiq onlayn kurslar uchun o‘quv materiallarini strukturalashtirish masalalarini tadqiq etishgan. S.G‘ulomov, A.Abdullayev va M.Lutfillayevlarning ishlarida masofaviy ta’lim uchun virtual stend yaratish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llashga doir amaliy taklif va tavsiyalar olg‘a surilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan O.Gazman, Y.Dubrovskaya, G.Kornetov, N.Krilova, N.Mixaylova, A.Mudrik, S.Rudkova, I.Slavina, L.Tarita, S.Chistyakova, S.M.Yusfinlar talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishga qo‘yiladigan psixologik, didaktik va ergonomik talablarni ishlab chiqishgan. S.Medvedeva, V.Tixomirova, Y.Vladimirova, M.Voronova, V.Gnevko, Y.Dmitriyeva, N.Maraxovskayalar kasb-hunar ta’limi tizimida masofaviy ta’limni tashkil etishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, aralash ta’lim sharoitida o‘qitish jarayonlarini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masofaviy ta’lim sharoitida o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha M.Buxarkina, Y.Dmitriyeva, M.Moiseyevlar; o‘quv faoliyati psixologiyasi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sohasida V.Bespalko, A.Verbinskiy, T.Gabai, V.Davidova, I.Rubsov, V.Serikov, V.Slobodchikov, N.Talibzina, D.Elkoninlar tadqiqot olib borishgan. Mustaqil ishslashga tizimli yondashish va uni faollashtirish usullari bo‘yicha A.Aleksyuk, Y.Babanskiy, M.Garunov, V.Zagvyazinskiy, A.Moliboga, G.Nizomovlar; mustaqil ish mazmuni va shakllari bo‘yicha Yu.Babanskiy, B.Yesipov, I.Lerner, P.Pidkasistoy, A.Usovalar; kognitiv mustaqillikni rivojlantirish bo‘yicha Y.Golanta, N.Polovnikova, G.Shchukinalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijlik olimlardan J.Bergmann, A.Sems, J.Greyni, Yu.Pak, D.Paklar talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish texnologiyalari, A.Alammari,



E.Boyer, F.Kayalar, G.Marunich, X.Singx kabilar aralash ta'lim modellari, pandemiya davrida o'qitish jarayonlariga aralash ta'limga xos yondashuvning ahamiyati, samarali aralash o'qitish dasturlarini ishlab chiqishga doir masalalarni tadqiq etishgan.

**Tahlil.** Ta'lim oluvchi (talaba) auditoriyalarda o'tkaziladigan darslarda qatnashadi, ammo shu bilan birga Computer – Mediated Activitie vositalaridan ham foydalanadi. Ya'ni, ta'lim faolligi mediator vazifasini kompyuter, onlayn-rejim, mobil devayslar hamda maxsus o'rgatuvchi dasturlar (platformalar) resurslar bajaradi.

Blended learning ta'lim texnologiyasi turli xil auditoriyalarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Jumladan, ta'lim oluvchi va talabalarni o'qitish, treninglar, xodimlarni korporativ malakasini oshirish va boshqalar. Aralash ta'limning quyidagi sinonimlari qo'llaniladi: Blending Learning, Hybrid Learning (gibrid ta'lim), Technology-Mediated Instruction (texnologiyalar orqali nasihat qilish), Web-Enhanced Instruction (veb-kengaytirilgan o'qitish) va Mixed-Model Instruction (aralash rejimda o'qitish).

Tarixan olib qaraydigan bo'lsak, 1920- va 1930-yillarda AQSH mакtablarida o'qituvchilar va talabalar elektron yozishuvlar orqali muloqot qilishni boshlashgan. 1970-yillarda esa ta'lim jarayonining qatnashchilarini ushbiy shakldagi o'zaro munosabatlari ko'pgina ochiq jahon universitetlar amaliyotida qo'llanila boshlagan. Bu harakatlarni hozirda "Aralash ta'lim" tushunchasiga misol qilish mumkin.

"Aralash ta'lim texnologiyasi" termini birinchi bor 1999-yilda AQSHning Interactive Learning Center pryecc-relizida keltirilgan va ular tomonidan EPIC Learning deb yuritilishi taklif etilgan. Mediамateriallarda: «...Biz o'zimizning Blended learning nomli metodologiyani qo'llab, internet orqali ta'lim olish uchun dasturiy ta'minotni taqdim etamiz» deyilgan.

Oliver va Trigvellarning (2005) qayd etishicha, aralash ta'lim muammosiga bo'lgan qiziqishni kuchayishi o'quv jarayonida axborot texnologiyalarni faol qo'llanishi bilan tushuntiriladi. Ushbu fikrni tasdiqlanishini ko'pgina boshqa izlanuvchilar ishlarida uchratishimiz mumkin. Bonk va Graham (2006) aralash ta'limni "yuzma-yuz" face-to-face instruction) va kompyuter yordamidagi (compuler-mediated instruction) ta'limning birlashishi deb ta'rif beradilar.

Bugungi kunda Blended learning deganda internet va sinfdagi raqamli media ta'lim imkoniyatlarining birlashishini nazarda tutadi.


AQSHning Innosight Institute tashkiloti 2007-yildan boshlab Amerika maktablarida aralash ta'limni amalga oshirish tajribalarini o'rganib kelmoqda.



Ushbu tashkilotning har yilgi hisobotlarida maktab talabalarining natijalari keltirilmoqda va ular har doim an'anaviy ta'limda o'qitilayotgan talabalarning natijalaridan ancha yuqori.

Zamonaviy ta'lim ma'lum darajada aralash ta'lim turidir, chunki raqamli texnologiyalar bilim va tajribaning asosiy manbaidir. Ammo shunga qaramasdan, Garvard universitetida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida aniqlanishi bo'yicha aralash ta'limda talabalar uchun asosiysi kursning onlayn elementlari emas, balki o'qituvchi tomonidan material qay ko'rinishida berilishi. Shu sababli ushbu ta'lim texnologiyasida ham inson omili katta ahamiyatga ega.

Bir qator olimlar tomonidan Blended learning an'anaviy va onlayn elementlarning o'zaro nisbati bo'yicha 6 ta modelga bo'linadi. Ular quyidagi rasmda (1-rasm) keltirilgan.



### 1-rasm. Blended learning an'anaviy va onlayn elementlarning o'zaro nisbati bo'yicha tasniflanishi

Ularni bat afsil ko'rib chiqamiz.

1. **Face-to-Face Driver («Yuzma-yuz boshqarish»).** O'qituvchi shaxsan ta'lim rejasining asosiy hajmini taqdim etadi, onlayn ta'lim olish esa yordamchi vosita sifatida zarurat bo'lganda qo'shiladi. Ushbu model ko'pincha o'z ichiga kompyuterdag'i laboratoriya ishlarni oladi.



**2. Rotation Model («Rotasion model»).** Auditoriyadagi an'anaviy to'liq ta'limning va shaxsiy rejimda mustaqil onlayn ta'limning dars jadvali rotasiya qilinadi. Masalan, o'qituvchi tomonidan tayyorlangan linklar rejasи bo'yicha internet orqali, maxsus saytda, muassasaning blended dasturida).

**3. Flex Model («Moslashuvchan model»).** Ko'pincha onlayn platforma qo'llaniladi, o'qituvchi zarurat bo'lganda talabalarni qo'llaydi, vaqt - **vaqt bilan katta bo'limgan guruhlar yoki alohida o'qituvchilar bilan ishlaydi.**

**4. Online Lab («Onlayn laboratoriya»).** Auditoriyada darslarda butun kursni uzatish uchun onlayn platforma qo'llaniladi. Ushbu ta'lim jarayoni o'qituvchi nazoratida sodir bo'ladi. Bunday dastur an'anaviy dastur bilan darslar jalvali ichida birlashishi mumkin.

**5. Self-Blend Model («O'zing aralashtir modeli»).** Ta'lim oluvchi qaysi Brick and Mortar kurslarini onlayn mashg'ulotlar bilan to'ldirishni o'zi hal qiladi.

**6. Online Driver Model («Onlayn boshqarish modeli»).** Ushbu model asosan onlayn ta'limni nazarda tutadi. O'qituvchi bilan esa uzoqlashtirilgan aloqa olib boriladi. Ammo talab bo'yicha tekshiriluvchi mashg'ulotlar, o'qituvchi bilan uchrashuvlar qo'shilishi mumkin.

Qaytarilgan sinf - bu an'anaviy guruhli o'rganishdan ko'ra individual va faol o'rganishga qaratilgan interaktiv va aralash ta'lim usuli. Talabalar uyda yangi mazmun va tushunchalar bilan tanishadilar va mакtabda bo'lganlarida ularni individual ravishda mashq qiladilar. Odatda, bu tushunchalar talabalar uyda tomosha qilishlari mumkin bo'lgan oldindan yozib olingan videolar bilan tanishtiriladi va ular maktabga mavzular ustida ishlash uchun bir oz boshlang'ich bilimga ega bo'lishadi.

Flexible ( moslashuvchan) o'quv muhiti

Dars rejalari, mashg'ulotlar va o'quv modellarini o'z ichiga olgan sinf xonasi individual va guruhli ta'limga mos ravishda qayta tashkil etilgan.

- Talabalarga qachon va qanday o'rganishlarini tanlash imkoniyati beriladi.
- Talabalarga o'rganish, fikr yuritish va ko'rib chiqish uchun etarli vaqt va makonni belgilang.

Interest (daromad)ga yo'naltirilgan yondashuv

An'anaviy modeldan farqli o'laroq, asosan o'qituvchiga asosiy ma'lumot manbai sifatida e'tibor qaratiladi, teskari sinf usuli o'z-o'zini o'rganishga va talabalar mavzuni o'zlashtirish jarayonini qanday shakllantirishga qaratilgan.

- Talabalar sinfda interfaol va qiziqarli o'quv faoliyati orqali o'rganadilar.



- Talabalar o‘z tezligida va o‘ziga xos tarzda o‘rganishadi.

Intention (maqsadli tarkib)

Qaytarilgan sinf xonalarining asosiy g‘oyasi talabalarga tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam berish va ulardan qachon va qanday qilib real hayotda foydalanishni o‘rganishdir. Mavzuni imtihon va baholash uchun o‘rgatishdan ko‘ra, mazmun o‘quvchining sinf darajasi va tushunchasiga moslashtiriladi.

- Video darslar talabalarning darajasi va bilim darajasiga qarab maxsus tuziladi.

- Tarkib odatda talabalar tomonidan ko‘p qiyinchiliklarsiz tushunilishi mumkin bo‘lgan bevosita o‘quv materialidir.

Professional o‘qituvchi

Bu an’anaviy sinf usulidan qanday farq qiladi, deb hayron bo‘lishingiz mumkin? Bu keng tarqalgan noto‘g‘ri tushunchadir, teskari sinf usulida o‘qituvchining ishtiroti minimaldir.

Chuqr o‘rganishning muhim qismi sinfda sodir bo‘lganligi sababli, teskari sinf usuli professional o‘qituvchidan talabani doimiy ravishda kuzatib borish va ularga real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etishni talab qiladi.

- O‘qituvchi individual yoki guruh mashg‘ulotlarini olib boradimi, ular talabalar uchun mavjud bo‘lishi kerak.

- Sinfda baholashni o‘tkazish, masalan jonli interaktiv viktorinalar mavzu asosida.

• Xo‘sh, nima uchun bu kontsepsiya paydo bo‘ldi? Bu yerda biz post-pandemiya haqida gapirmayapmiz; teskari sinf tushunchasi birinchi marta Koloradodagi ikki o‘qituvchi - Jonatan Bergman va Aaron Sams tomonidan 2007 yilda amalga oshirilgan.

- Kasallik yoki boshqa sabablarga ko‘ra dars qoldirgan talabalar darsda o‘qitiladigan mavzularni egallahsga imkon yo‘qligini anglab yetganlarida, bu g‘oya ularga keldi. Ular dars videolarini yozib olishni boshladilar va bu videolardan darsda material sifatida foydalanishdi.

An’anaga ko‘ra, o‘qitish jarayoni juda ko‘p bir tomonlama. Siz...

- Sinfni butun sifatida o‘rgating
- Ularga eslatma bering
- Ularni uy vazifasini bajarishga majbur qiling
- Sinovlar orqali ularga umumiy fikr bildiring

Talabalar o‘rganganlarini vaziyatlarda qo‘llashlari yoki oxirigacha ishtirot etishlari uchun deyarli hech qanday imkoniyat yo‘q.



Holbuki, teskari sinfda o'qitish ham, o'rganish ham talabalarga qaratilgan va o'rganishning ikki bosqichi mavjud.

### **Uyda talabalar:**

- Mavzularning oldindan yozib olingan videolarini tomosha qiling
- Kurs materiallarini o'qing yoki ko'rib chiqing
- Onlayn tadbirlarda ishtirok eting
- Tadqiqot

### **Sinfda ular:**

- Mavzular bo'yicha boshqariladigan yoki ko'rsatilmagan amaliyotda ishtirok eting
- Tengdoshlar bilan munozaralar, taqdimotlar va munozaralar o'tkazing
- Har xil tajribalar qiling
- Formativ baholashda ishtirok eting

### **Isikava diagrammasi**

Isikava diagrammasi, shuningdek, "baliq suyagi" va "sabab-ta'sir diagrammasi" sifatida ham tanilgan, muammoning mumkin bo'lgan sabablarini tasniflash va tasavvur qilish va ildizga kirishga yordam beradi. Diagramma 1950-1951 yillarda yapon professori Kaoru Isikava tomonidan ixtiro qilingan bo'lib, uzoq vaqt davomida sanoatdag'i nuqsonlar va og'ishlarning sabablarini aniqlash uchun ishlatilgan va oxir-oqibat mashhur sifatni boshqarish vositasiga aylandi. Loyiha va mahsulot guruhlari diagrammadan, shu jumladan xavflar bilan ishlashda foydalanishni boshladilar.

### **Qulay vizualizasiya**

Diagramma sizga loyihaning to'liq rasmini yaratishga imkon beradi, shu bilan birga muammolar manbalari guruhlangan. Tafsilotlar darajasi har xil bo'lishi mumkin, lekin qoida tariqasida, Ishikava diagrammasi bir yoki ikkita tor mutaxassis uchun emas, balki barcha manfaatdor tomonlar uchun tushunarli.

### **Muhokama uchun boshlanish nuqtasi**

Vizual diagramma atrofidagi munozara jamoani birlashtirishga yordam beradi va hatto eng jim odamlarni gaplashadi. Uni chizishni boshlaganingizda, qo'shilmasligingiz juda qiyin. Va keyin diagrammadan keyingi miya hujumi uchun boshlang'ich nuqta sifatida foydalanish qulay, masalan, ma'lum bir manba uchun xavflarni shakllantirish kerak bo'lganda.

### **Qayta ishlatmoq**

Deyarli universal dizayn tamoyillarini eslang. Qayta tiklanadigan elementlardan foydalaning. Siz bir marta diagramma chizdingiz - keyin siz uni shunga o'xshash loyihalar uchun to'ldirasiz ishlatasiz. Isikava diagrammasi jarayon natijadan kam bo'limgan holatdir. Qancha manbalarni olishingiz muhim



emas, uzunlik va egrilik va "suyaklar", siz doskada yoki Google Slidesda chizasiz. Muammolardan qochmasangiz, ularga tayyorgarlik ko‘rishingiz uchun nima noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylashingiz muhimdir.

Oliy ta’limda talabalarning mustaqil ta’limini tashkillashtirish usullari axborot texnologiyalaridan kelib chiqqan holda quyida ko‘rsatilgan struktura orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bunda talaba mustaqil ish bajarishda ochiq elektron ta’lim resurslaridan foydalangan holda topshiriqni oladi. Ochiq elektron ta’lim resurslarini oliy ta’lim muassasasining elektron ta’lim platformasi asosida yoki SD/fleshkalarda mustaqil ta’lim uchun ajratilgan resursni olgan holda mos ravishda sinxron yoki asinxron ko‘rinishda shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Talabalar bunda faqat shaxsiy kompyuterdan foydalanibgina qolmasdan balki planshetlardan ham foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Bunda talabaga mustaqil ish bajarish uchun OTM elektron ta’lim platformasi orqali on-line yoki keys usulidan foydalangan holda off-line rejimda mustaqil ish vazifalarini bajarishi mumkin bo‘ladi.

Jamiyatning zamonaviy rivoji ta’lim jarayoni tubdan o‘zgartirilishini, ya’ni ta’lim oluvchining auditoriya yuklamalari, ma’ruza eshitishi mustaqil ishning hissasini oshirish orqali kamaytirilishini talab qiladi. Bu holda ta’limning og‘irlik markazi o‘qitishdan ta’lim oluvchining mustaqil faoliyatiga o‘tadi. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar nisbatini aniqlashda mustaqil ishni tashkil etish muammosiga sinchkovlik bilan yondashish lozim.

Ta’lim muassasasida mustaqil ishning auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘qitish jarayonini tashkil qilish oliy ta’lim hamda keyingi malaka oshirishda o‘quv mehnati uquvini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Ta’lim muassasasida talabalar davom etadigan mustaqil ta’lim olishga tayyor bo‘lishi kerak. Mustaqil ishlar shu maqsadga erishishning vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ta’kidlash kerakki, ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayoni talabaning o‘z xohishi bilan mustaqil bilim olishiga olib kelmaydi, balki ta’lim oluvchining o‘qituvchi tomonidan tizimli boshqariladigan faoliyati hisoblanadi. Bunday faoliyat oliy ma’lumotli mutaxassislarni boqichma-bosqich tayyorlashga o‘tish jarayonida katta ustunlikka ega.

Bilim yo‘nalishi, qiziqish, bilishga ehtiyoj o‘qish faoliyati va faolligining zaruriy shartidir. Berilayotgan axborot talaba tomonidan bilim olishga zarurat tug‘ilganda faol qabul qilinadi. O‘rganilayotgan fanning murakkablik darjasini bir xil bo‘lgan tarkibi talabaning tasavvur qilish uslubi, qabul qilish motivi va qiziqishi bo‘yicha turlicha o‘zlashtirilishi mumkin. Talabaning kelajak faoliyatga, aniq bir fanga qiziqish turg‘unligi o‘qish va ilmiy faoliyat jarayonida



yuzaga keladi. Auditoriya soatlarini qisqartirishda pedagogik faoliyatning asosiy e'tibori talaba o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida bajaradigan mustaqil ishlarga qaratiladi. Bu ish auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik, alohida mavzular bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish, yozma nazorat ishlarini bajarish, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.

Auditoriya va mustaqil ish, talaba egallagan umumta'lim bilimlarini va berilgan fan o'rganilgandan so'ng o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish o'quv jarayoni pedagogik texnologiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Hozirgi kunda masofaviy ta'lif texnologiyasi rivojlanmoqda, natijada o'quv materialining bir qismi elektron kurs shaklida, qolgani esa, virtual sinfdagi dars shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Bunday ta'lif talabalardan o'z o'quv jarayonini boshqarishni (rejalashtirish, tashkil qilish, nazorat), yuqori darajada tashkilotchilikni, ma'lum qobiliyatlarni, uquvlarni, ta'lif olish jarayoni natijalarini baholashni talab etadi. Bundan tashqari, talaba o'quv materialini o'zlashtirish uchun uni mustaqil ravishda umumlashtirishi, bajarilgan o'quv ishlari va topshiriqlarni bajarishdagi faoliyatini tahlil qilishi va baholashi kerak. Shunday qilib, talaba o'qituvchi bilan birga nazorat ishlarini bajarishga qay darajada tayyor ekanligini mustaqil baholashi lozim. Shu bilan birga mustaqil o'zlashtiriladigan materialning tushunilish darajasini davriy ravishda baholab borish kerak.

Shu sababli o'quv faoliyatini boshqarish jarayonining assiy qismi o'z-o'zini nazorat qilish hisoblanadi va o'quv materiali yaxshi o'zlashtirilganligiga ishonch hosil qilinadi.

Ta'lif jarayonida bilim, uquv va malakalarni talabaning o'zini-o'zi baholash usuli pedagog bilan o'zaro aloqaning kamayishi hisobiga katta ahamiyat kasb etadi.

Talaba o'quv dasturi o'zini qoniqtirishiga ishonch hosil qilishi kerak. Bu holda o'qituvchining ishi sport murabbiyining ishini eslatadi, u sportchiga faqat harakatlarni qanday bajarishni o'qitibgina qolmay, uni o'z-o'zini nazorat qilish va tuzatishlar kiritishga o'rgatadi.

Agar o'z-o'zini nazorat qilish uquvlari ishlab chiqilmagan bo'lsa, talaba faoliyatidagi xatolarni o'qituvchi tuzatishi va tashqi nazoratga o'rganib qoladi.

Metodik va test materiallar mavjud bo'lganda talabalarning o'z-o'zini nazorat qilishi va baholashi ta'limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi va u quyidagilarga imkon yaratadi:

- talabaga o'quv faoliyatini rejalashtirish;
- maqsad qo'yish va o'qish muammolarini hal qilish;
- o'quv materialini tizimlash;



- asosiy g'oyalarni va ikkinchi darajalilardan asosiysini ajratish;
- natijalarni baholash, test o'tkazish va axborotlarni qiyoslash orqali o'quv faoliyatining barcha bosqichlarida natijalarni baholash va o'zini baholash.

Barchamizga ma'lumki talabalarning mustaqil ishi o'quv rejada ajaratilgan umumiy soatning 60%ini tashkil etadi. Hozirda talabalarning mutaqil ishi fanning o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqqan holda har xil turlarda tashkillashtiriladi.

Navbatdagi modelda ommaviy onlayn ochiq kurslar (OOOK)dan foydalangan holda talabalarning mutaqil ishini tashkillashtirish mexanizmi taklif etiladi:

1. OTM kafedrasining professor-o'qituvchilari tomonidan OOOK o'r ganilib chiqiladi.

2. Kafedraning yo'nalishidan kelib chiqqan holda OOOK o'quv modullari ajratib olinadi. Ajratib olingan o'quv modullarining qiyinlik darjasini, o'quv modulini o'zlashtirishga ketadigan vaqtini, kursni o'zlashtirish uchun talabadan talab qilinadigan minimal bilim talablari o'r ganilib chiqiladi.

3. Tanlab olingan o'quv fan moduli bo'yicha ichki nazoratni tashkillashtirish maqsadida imtihon-nazorat savollari tuziladi.

4. Ajratib olingan o'quv fan modullari kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi va maxsus bayon nomma asosida tasdiqlanib, universitet ilmiy uslubiy kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

5. Mustaqil ish sifatida talabalarga OOOK berilayotgan o'quv fanlari ro'yxati tavsiya sifatida beriladi.

6. Talaba mustaqil ish sifatida OOOK tomonidan taqdim etilayotgan kursni (o'quv fanini yoki modulini) o'zlashtiradi.

7. O'zlashtirgandan keyin kafedra tomonidan ichki nazorat testlarini topshirib mustaqil ishi baholanadi.

Yuqorida bayon etilgan modellarni OTM o'quv jarayoniga tatbiq etish maqsadida yo'riq nomma ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan yo'riq nomada oliy ta'lim subyektlari bo'lmish talabalar ochiq elektron ta'lim resurslari va xorij adabiyotidan foydalangan holda talabalarning mustaqil ta'limini tashkillashtirish mexanizmi o'z aksini topgan.

**Xulosa.** Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini ishlab chiqarish bilan integrasiyalashni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha mamlakatimizning ilg'or zamonaviy texnologiyalari bilan ishslash malakasini beruvchi ochiq elektron o'quv kurslar orqali mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkillashtirishda Blended learning konsepsiysi qo'llanildi.



Elektron ta'lim va an'anaviy ta'lim texnologiyalari uyg'unligini ta'minlashda va o'quv jarayonini tashkillashtirishda Blended learning konsepsiysi orqali foydalanish mexanizmi ishlab chiqildi. Blended learning konsepsiyasidan foydalanishning samaradorlik mezonlari ishlab chiqildi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar, muammo bo'yicha ilmiy-uslubiy va me'yoriy adabiyotlarni tahlil qilish, hozirgi zamonda oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish, mustaqil ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammosining mavjud holatini o'rganish bo'yicha olib borilgan tasdiqllov pedagogik-sinov ishlari tasdiqlamoqdaki, birinchidan, o'quv ijodiy tayyorgarlik o'qituvchilarining kasbiy layoqatliligi (komponentlik)ni ko'rsatuvchi sifatlaridan biri bo'lib, ta'lim jarayonida egallangan ijodiy bilim, malaka va ko'nikmalar, ijodiy tafakkur va fazoviy tasavvurlar uning komponentlaridir; ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarining ijodiy tayyorgarligini takomillashtirishda ularda fazoviy tasavvur va ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi pedagogika bo'yicha mustaqil ta'lim muhim rol o'ynab, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni bajarish ularning professional tayyorgarligini ta'minlaydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. M.X.Saidov, L.V.Peregudov, Z.T.Tohirov. Oliy ta'lim (lug'atma'lumotnoma). — T. : "Moliya" nashriyoti, 2003,- 456 b.
2. Madatov I.Y. Aralashtirilgan ta'lim texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishni takomillashtirish (Bakalavriat ta'limi pedagogika va psixologiya misolida). Dissertatsiya avtoreferati.- Samarqand ,2023.
3. Madatov I.Y. Aralashtirilgan ta'lim texnologiyasi asosida mustaqil ta'limni tashkil etish. // FAN, TA'LIM VA AMALIYATNING INTEGRASI. ILMIY-METODIK JURNALI, - 2022/6/23, 126-131-b  
havola:  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=sZUQpYUAAAAJ&citation\\_for\\_view=sZUQpYUAAAAJ:u-x6o8ySG0sC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZUQpYUAAAAJ&citation_for_view=sZUQpYUAAAAJ:u-x6o8ySG0sC)
4. I.Y.Madatov, ELEKTRON TA'LIM TEXNOLOGIYALARI (BLENED LEARNING), PEDAGOGIK MAKORATLAR, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, №5, 58-61-b,
5. I.Y.Madatov, Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda qorishma ta'lim texnologiyasidan foydalanish bo'yicha test-eksperimental ishlar, FAN va JAMIYAT//Ilmiy-uslubiy jurnal Seriya: Pedagogika fanlari, №3, 2021.